MULTIDISCIPLINARY JOURNAL: FUNDAMENTAL RESEARCH SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 02. ISSUE 01. JANUARY 2026.
ResearchBib Impact Faktor: 13.943 ISSN: 3060-513X

O'SMIRLAR XULQ-ATVORIDAGI ME'YOR BUZILISHLARIGA MOYILLIK: PSIXOLOGIK OMILLAR, DIAGNOSTIKA VA PROFILAKTIK YONDASHUVLAR

KURBANIYAZOVA NODIRA MAXMUDOVNA
Urganch davlar tibbiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrasi o'qituvchisi, Urganch, O'zbekiston

ANNOTATSIYA. Maqolada o'smirlik davridagi xulq-atvorda me'yor buzilishlariga moyillik muammosi va uning psixologik asoslari bo'yicha adabiyotlar tahlili amalga oshirilgan. Maqolaning maqsadi xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida o'smirlar xulq-atvorida me'yor buzilishlarining psixologik omillarini, diagnostika usullarini va profilaktik yondashuvlarni tizimli o'rganishdir. Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida me'yor buzuvchi xulq-atvor shakllanishida oilaviy muhit, shaxsiy-psixologik xususiyatlar, ijtimoiy omillar va maktab munosabatlarining roli aniqlandi. Psixodiagnostik yondashuvlar tahlili standartlashtirilgan testlar, proyektiv metodikalar va kuzatish texnikalarining qo'llanilish xususiyatlarini ko'rsatdi. Profilaktik ish strategiyalari ichida psixologik-pedagogik maslahat, korreksion dasturlar va kompleks yondashuvlar muhim o'rin tutishi aniqlandi. Adabiyotlar tahlili O'zbekiston sharoitida tadqiqot makonini kengaytirish va evidensga asoslangan profilaktik dasturlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'smirlar, me'yor buzilishlari, xulq-atvor og'ishlari, psixologik omillar, psixodiagnostika, profilaktika, adabiyotlar tahlili.

АННОТАЦИЯ. В статье представлен обзор литературы по проблеме предрасположенности к нарушениям норм поведения в подростковом возрасте и их психологическим основам. Цель статьи - систематическое изучение психологических факторов нарушений поведения подростков, методов диагностики и профилактических подходов на основе зарубежных и местных исследований. В результате анализа литературы выявлена роль семейной среды, личностно-психологических особенностей, социальных факторов и школьных отношений в формировании поведения, нарушающего нормы. Анализ

психодиагностических подходов показал особенности применения стандартизированных тестов, проективных методик и техник наблюдения. Установлено, что психолого-педагогическое консультирование, коррекционные программы и комплексные подходы занимают важное место в стратегиях профилактической работы. Обзор литературы указывает на необходимость расширения исследовательского пространства в условиях Узбекистана и разработки профилактических программ, основанных на доказательствах.

Ключевые слова: подростки, нарушения норм, отклонения в поведении, психологические факторы, психодиагностика, профилактика, обзор литературы.

ANNOTATION. This article presents a literature review on the predisposition to norm-violating behavior in adolescence and its psychological foundations. The purpose of the article is to systematically study the psychological factors of adolescent behavioral violations, diagnostic methods, and preventive approaches based on international and local research. The literature analysis revealed the role of family environment, personality-psychological characteristics, social factors, and school relationships in the formation of norm-violating behavior. The analysis of psychodiagnostic approaches showed the features of applying standardized tests, projective techniques, and observation methods. It was established that psychological-pedagogical counseling, correctional programs, and comprehensive approaches occupy an important place in preventive work strategies. The literature review indicates the need to expand the research scope in Uzbekistan's context and develop evidence-based preventive programs.

Keywords: adolescents, norm violations, behavioral deviations, psychological factors, psychodiagnostics, prevention, literature review.

KIRISH. O'smirlik davri inson rivojlanishining eng murakkab va muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda yuz beradigan intensiv jismoniy, psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar o'smirning shaxsiyati shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ayni shu o'zgarishlar xulq-atvorda turli og'ishlar va me'yor buzilishlarining paydo bo'lishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 10-19 yoshli o'smirlarning taxminan 10-20 foizida

turli darajadagi emotsional va xulq-atvor muammolari kuzatiladi (WHO, 2021). Bu ko'rsatkich zamonaviy jamiyat uchun jiddiy tashvish tug'diruvchi muammo sifatida baholanadi.

O'smirlar xulq-atvoridagi me'yor buzilishlari muammosi O'zbekiston sharoitida ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Ta'lim vazirligi va Oila va ayollar qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda maktablarda o'qish jarayoniga moslashish qiyinchiliklari, agressiv xulq-atvor ko'rinishlari va huquqbuzarlik holatlari nisbatan o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Bu holat nafaqat pedagogik, balki psixologik, ijtimoiy va hatto tibbiy jihatdan ham chuqur o'rganishni talab etadi. Shu bilan birga, mahalliy ilmiy adabiyotlarda ushbu muammoning kompleks tadqiqi, ayniqsa, profilaktika va erta diagnostika masalalari yetarlicha yoritilmagan.

Me'yor buzilishlari tushunchasining o'zi psixologiya va pedagogika fanlarida turli talqinlarga ega. Ba'zi mualliflar uni deviant xulq-atvor (Kleyberg, 2014), boshqalari esa dezadaptiv yoki maladaptiv xulq-atvor (Zmanovskaya, 2018) deb atashadi. Biroq umumiy nuqtai nazarda me'yor buzilishlari deganda jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy, huquqiy, axloqiy va psixologik me'yorlardan og'ish tushiniladi. O'smirlik davri esa aynan shu me'yorlarni o'zlashtirish va ichkilashtirish jarayonining eng dolzarb bosqichi hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi xorijiy va mahalliy adabiyotlar asosida o'smirlar xulq-atvoridagi me'yor buzilishlariga moyillikning psixologik omillarini, diagnostika usullarini va profilaktik yondashuvlarni tizimli tahlil qilishdan iborat. Adabiyotlar tahlili nazariy konsepsiyalar, empirik tadqiqotlar natijalari va amaliy tajribalarni qamrab oladi. Maqola O'zbekiston psixologiya va pedagogika sohalarida ushbu muammo bo'yicha tadqiqot yo'nalishlarini belgilashga hissa qo'shishi mo'ljallangan.

O'smirlar me'yor buzuvchi xulq-atvoriga nazariy yondashuvlar. O'smirlar xulq-atvoridagi me'yor buzilishlarini tushunishda turli nazariy yondashuvlar mavjud. Psixodinamik yo'nalish vakillari, xususan Z. Freyd va uning izdoshlari, xulq-atvordagi og'ishlarni shaxsiyatning tuzilishidagi muvozanatning buzilishi va himoya mexanizmlarining noto'g'ri ishlashi bilan bog'laydilar. Freyd nazariyasiga ko'ra, Id, Ego va Superego o'rtasidagi konfliktlar xulq-atvor muammolarining asosiy manbai hisoblanadi (Freud, 1923/2010). O'smirlik davri esa aynan shu tuzilmalar o'rtasidagi muvozanatni qayta tiklash va mustahkamlash davri sifatida ko'riladi.

Kognitiv-bihevioristik yondashuv vakillaridan A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasini ishlab chiqib, xulq-atvor shakllanishida kuzatish, taqlid qilish va modellashtirish jarayonlarining ahamiyatini ta'kidladi (Bandura, 1977). Uning fikricha, o'smirlar o'zlariga muhit bo'lgan kattalarning, tengdoshlarining va ommaviy axborot vositalaridagi modellarn xulq-atvorini kuzatish orqali ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirib, ba'zan noto'g'ri modellarga taqlid qilish natijasida og'ishgan xulq-atvor shakllanishi mumkin.

Ekologik tizim nazariyasi (Bronfenbrenner, 1979) esa o'smir rivojlanishini va xulq-atvorini turli tizimlar kontekstida o'rganadi. Mikrotizim (oila, maktab), mezotizim (oila va maktab o'zaro ta'siri), ekzotizim (ota-onalarning ish joyi) va makrotizim (madaniy qadriyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar) o'smirning xulq-atvoriga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuv me'yor buzilishlarini yakka shaxs muammosi sifatida emas, balki tizimlar o'zaro ta'sirining natijaviy ko'rinishi sifatida baholaydi.

Rossiya psixologiya maktabining vakillari, jumladan L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev va D.B. Elkonin madaniy-tarixiy yondashuv doirasida shaxsiyat rivojlanishini faoliyat va muloqot jarayonida ko'rib chiqdilar. Ularning ta'kidlashicha, o'smirlik davrining asosiy faoliyati tengdoshlar bilan muloqot bo'lib, aynan shu faoliyat tizimida o'z-o'zini anglanish, shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy rollarn o'zlashtirish yuz beradi (Elkonin, 2001). Me'yor buzilishlari esa muloqot faoliyatining buzilishi yoki noto'g'ri yo'nalishi natijasida vujudga kelishi mumkin.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa integrativ yondashuv keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv biologik (genetik moyillik, miya rivojlanishi), psixologik (kognitiv, emotsional omillar) va ijtimoiy (oilaviy, madaniy kontekst) omillarni birgalikda ko'rib chiqadi. Moffitt (1993) tomonidan taklif etilgan "hayot davomiyligi-cheklangan" va "hayot davomida doimiy" deviantlik modellari o'smirlik davrida vaqtincha kuzatiladigan va uzluksiz davom etadigan me'yor buzilishlarini farqlashga imkon beradi.

Me'yor buzilishlariga ta'sir qiluvchi psixologik omillar. Adabiyotlar tahlili o'smirlar xulq-atvoridagi me'yor buzilishlarining ko'p omilli tabiati haqida dalillar beradi. Psixologik omillar ichida shaxsiy-psixologik, oilaviy, maktab va keng ijtimoiy omillar alohida ajralib turadi.

Shaxsiy-psixologik xususiyatlar. Turli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, temperament xususiyatlari, xususan yuqori impulsivlik, past o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati va emotsional beqarorlik me'yor buzilishlariga moyillikni oshiradi (Moffitt et al., 2011). O'zga o'smirlar bilan solishtirganda past o'z-hurmatga ega o'smirlar ijtimoiy me'yorlardan chetlashish orqali tengdoshlari orasida o'z mavqeini mustahkamlashga intilishlari mumkin. Bundan tashqari, o'smirlik davrida shaxsiy identifikatsiya va o'z-o'zini qabul qilish jarayonlarining murakkabligi ham risk omili hisoblanadi.

Kognitiv omillar ham muhim rol o'ynaydi. Dodge va boshqalar (1990) tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy ma'lumotlarni qayta ishlash modeli shuni ko'rsatadiki, o'smirlar ijtimoiy vaziyatlarni noto'g'ri talqin qilishlari, boshqalarning niyatlarini dushmanlik sifatida qabul qilishlari va muammolarni hal etishda agressiv strategiyalarni afzal ko'rishlari me'yor buzuvchi xulq-atvorni keltirib chiqaradi. Kognitiv buzilishlar (cognitive distortions) nafaqat agressiyaga, balki qonunbuzarlik va boshqa og'ishgan xulq-atvorlarga ham olib keladi.

Oilaviy muhit omillari. Ko'plab tadqiqotlar oilaviy muhitning o'smirning xulq-atvori shakllanishidagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi. Patterson va boshqalar (1992) "kurs targ'ibot" modelida oilaviy dysfunktsiya va noto'g'ri tarbiya uslublarining o'smirni antisosial xulq-atvor yo'lidan boshlashiga olib kelishini ko'rsatdilar. Avtoritar yoki rad etuvchi tarbiya, oilaviy zo'ravonlik, ota-onalarning deviant xulq-atvori va oilaviy nizolar o'smirlarda me'yor buzilishlarining kuchli prediktorlari hisoblanadi.

Oilada emotsional issiqlik va qo'llab-quvvatlashning etishmasligi, shuningdek haddan tashqari nazorat yoki nazoratning butunlay yo'qligi ham xavfli omillardir. Baumrind (1991) tarbiya uslublari tipologiyasiga ko'ra, demokratik tarbiya uslubi o'smirlarda ijobiy ijtimoiy xulq-atvor shakllanishiga hissa qo'ssa, avtoritar va liberal (permissiv) uslublar esa me'yor buzilishlariga moyillikni oshiradi.

Maktab muhiti va tengdoshlar ta'siri. Maktabdagi muvaffaqiyatsizlik, o'qituvchilar bilan salbiy munosabatlar va maktabga nisbatan salbiy munosabat shakllansishi me'yor buzilishlarining muhim omillari sifatida ko'rsatilgan (Hirschi, 1969). Maktabga bog'lanishning zaifligini his qiladigan o'smirlar ko'proq deviant guruplarga qo'shilishga moyil bo'ladilar. Tengdoshlar guruhi ta'siri ayniqsa o'smirlik

davrida kuchayadi va deviant subkultura bilan bog'langan tengdoshlar me'yor buzuvchi xulq-atvorni "normallashtirish" va rag'batlantirishga hissa qo'shadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Qashshoqlik, turar joy sharoitlarining yomonligi, mahallaning ijtimoiy dezorganizatsiyasi va imkoniyatlarning cheklanishi ham o'smirlar orasida me'yor buzilishlarining tarqalishiga ta'sir qiladi (Sampson & Laub, 1994). Biroq, bu omillarning ta'siri bevosita emas, balki oilaviy stresslar, ota-onalarning ruhiy salomatligi va tarbiya sifatini pasaytirish orqali bilvosita amalga oshadi.

Psixodiagnostik yondashuvlar. O'smirlar xulq-atvoridagi me'yor buzilishlarini diagnostika qilish murakkab va ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili turli diagnostik vositalar va yondashuvlarning qo'llanilishini ko'rsatadi.

Standartlashtirilgan psixometrik testlar. Xulq-atvor muammolarini baholashda eng keng tarqalgan vositalardan biri Achenbach Child Behavior Checklist (CBCL) hisoblanadi. Bu metodika ichki (emotsional muammolar, tashvishlanish) va tashqi (agressiya, qonun buzish) muammolarni baholash imkonini beradi (Achenbach & Rescorla, 2001). Shuningdek, Strengths and Difficulties Questionnaire (SDQ) ham o'smirlarning emotsional va xulq-atvor muammolarini skrining qilishda samarali vosita sifatida qo'llaniladi.

Shaxsiy xususiyatlarni baholash uchun Minnesota Multiphasic Personality Inventory for Adolescents (MMPI-A) keng foydalaniladi. Bu test o'smirlarning shaxsiy profili, psixopatologik tendentsiyalari va me'yor buzuvchi xulq-atvorga moyilligini aniqlashga yordam beradi. Rossiya psixologiyasida esa Lichko tomonidan ishlab chiqilgan Patoxarakterologik diagnostik so'rovnoma (PDO) o'smirlarning xarakter aksentatsiyalarini aniqlashda qo'llaniladi (Lichko, 1983).

Proyektiv metodikalar. Standartlashtirilgan testlardan tashqari, proyektiv metodikalar ham o'smirlarning ongsiz motivlari, emotsional holatini va ichki konfliktlarini aniqlashda qo'llaniladi. Rorschach testi, Tematik appertsepsiya testi (TAT) va turli grafik metodikalar (oila rasmini chizish, daraxt testi) o'smirning ichki dunyosi haqida qo'shimcha ma'lumot beradi. Biroq, ushbu metodikalarning talqin etilishida yuqori malaka va ehtiyotkorlik talab etiladi.

Kuzatish va intervyu texnikalari. To'g'ridan-to'g'ri kuzatish maktab va oilaviy muhitda o'smirning real xulq-atvorini baholash imkonini beradi. Strukturalashtirilgan va yarim-strukturalashtirilgan klinik intervyular o'smir va uning ota-onalari bilan

o'tkaziladi. Diagnostic Interview Schedule for Children (DISC) kabi intervyular DSM diagnostik mezonlari asosida turli psixik va xulq-atvor buzilishlarini aniqlashga yordam beradi.

Kompleks diagnostik yondashuv. Zamonaviy amaliyotda yagona diagnostik vosita emas, balki turli manbalardan (o'quvchi, ota-onalar, o'qituvchilar) va turli metodlar (testlar, kuzatish, intervyu) orqali ma'lumot to'plash tamoyili qo'llaniladi. Bu multimodal baholash deb ataladi va diagnostik xulosalarning ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi (Hunsley & Mash, 2018). Shuningdek, madaniy-kontekstual omillarni hisobga olish zarurati ham ta'kidlanadi, chunki me'yor tushunchasi madaniyatdan madaniyatga farq qilishi mumkin.

Profilaktik va psixologik korreksiya strategiyalari. Adabiyotlar tahlili o'smirlar xulq-atvoridagi me'yor buzilishlarini oldini olish va korreksiya qilishda turli darajadagi profilaktik yondashuvlar qo'llanilishini ko'rsatadi.

Birlamchi profilaktika (universal profilaktika). Ushbu daraja barcha o'smirlarga qaratilgan bo'lib, me'yor buzilishlarining oldini olishga qaratilgan. Maktablarda ijtimoiy-emotsional o'rganish (Social-Emotional Learning - SEL) dasturlari yuqori samaradorlikni ko'rsatgan (Durlak et al., 2011). Ushbu dasturlar o'smirlarga o'z-o'zini anglash, emotsiyalarni boshqarish, munosabatlar o'rnatish, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, ijobiy maktab iqlimini shakllantirish, o'quvchilarning maktabga bog'lanishini mustahkamlash va tengdoshlar orasida qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratish ham birlamchi profilaktikaning muhim komponentlari hisoblanadi. Olweus Bullying Prevention Program kabi dasturlar maktablarda zo'ravonlikni kamaytirish va xavfsiz muhit yaratishda samarali ekanligi isbotlangan (Olweus & Limber, 2010).

Ikkilamchi profilaktika (selektiv va ko'rsatilgan profilaktika). Bu daraja me'yor buzilishlariga moyil bo'lgan yoki dastlabki belgilari kuzatiladigan o'smirlarga qaratilgan. Kognitiv-bihevioristik terapiya (CBT) asosidagi kichik guruh dasturlari agressiya, impulsivlik va boshqa xulq-atvor muammolarini kamaytirishda samaradorligini ko'rsatgan (Sukhodolsky et al., 2016). Ushbu dasturlar kognitiv qayta qurish, emotsional tartibga solish va ijtimoiy muammolarni hal etish ko'nikmalarini o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Oilaviy intervensiyalar ham muhim ahamiyatga ega. Multisiztemik terapiya (Multisystemic Therapy - MST) jiddiy xulq-atvor muammolari ko'rsatayotgan o'smirlar va ularning oilalari bilan ishlashda yuqori samaradorlikka ega (Henggeler et al., 2009). Ushbu yondashuv oila, maktab, tengdoshlar va mahalla kontekstida kompleks intervensiyalar amalga oshiradi.

Uchinchi darajali profilaktika (korreksiya va reabilitatsiya). Allaqachon shakllangan va mustahkamlangan me'yor buzilishlari holatlarida intensiv korreksion ishlar talab etiladi. Individual psixoterapiya, oilaviy terapiya va ba'zi hollarda dori-darmon davolash kompleks yondashuvda qo'llaniladi. Dialectical Behavior Therapy for Adolescents (DBT-A) emotsional tartibga solish muammolari bo'lgan o'smirlar uchun samarali terapevtik usul hisoblanadi.

Mentor dasturlari va ijobiy role modellari bilan ishlash ham korreksion jarayonda muhim rol o'ynaydi. Big Brothers Big Sisters kabi dasturlar risk guruhidagi o'smirlarga ijobiy kattalar bilan uzoq muddatli munosabatlar o'rnatish imkonini beradi va ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi (DuBois et al., 2011).

Evidensga asoslangan amaliyot tamoyili. Zamonaviy profilaktika va korreksiya ishlarida evidensga asoslangan yondashuv (evidence-based practice) keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuv ilmiy tadqiqotlar orqali samaradorligi isbotlangan dasturlar va metodlarni afzal ko'rishni anglatadi. Shu bilan birga, madaniy moslashuv zaruriyati ham e'tirof etiladi: G'arbiy mamlakatlarda ishlab chiqilgan dasturlarni boshqa madaniy kontekstga qo'llashda adaptatsiya va validatsiya jarayonlari zarur (Castro et al., 2004).

MUHOKAMA. Adabiyotlar tahlili o'smirlar xulq-atvoridagi me'yor buzilishlari muammosining ko'p qirraliligini va murakkabligini ko'rsatadi. Turli nazariy yondashuvlar ushbu muammoning turli jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, hozirgi kunda integrativ, biosiosial-psixologik yondashuv ustuvorlik kasb etmoqda. Ushbu yondashuv biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'sirida me'yor buzilishlarining shakllanishini ko'rib chiqadi.

Psixologik omillar tahlili shuni ko'rsatdiki, me'yor buzilishlari yakka omilning ta'siri emas, balki ko'plab risk va himoya omillarining dinamik o'zaro ta'siri natijasidir. Oilaviy muhit, maktab sharoitlari, tengdoshlar ta'siri va shaxsiy xususiyatlar bir-biri bilan murakkab aloqalarda bo'lib, ba'zan bir-birini kuchaytiradi, ba'zan esa bir-birining

ta'sirini kamaytiradi. Shuning uchun profilaktik va korreksion ishlar ham kompleks, ko'p komponentli bo'lishi kerak.

Diagnostik yondashuvlar sohasida multimodal baholash prinsipi keng e'tirof etilgan. Yagona diagnostik vosita emas, balki turli metodlar va turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish diagnostik xulosalarning aniqligini va ishonchliligini oshiradi. Biroq, O'zbekiston sharoitida ko'plab xorijiy diagnostik vositalar to'liq adaptatsiya qilinmagan va validatsiya qilinmagan, bu amaliy psixologlar uchun muammo tug'diradi.

Profilaktik dasturlar samaradorligi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar qoniqarli natijalar bersa-da, mahalliy sharoitda bunday dasturlarning kamdan-kam qo'llanilishi va baholanishi muammo hisoblanadi. O'zbekiston maktablarida profilaktik ish asosan ma'ruzalar va suhbatlar bilan cheklangan, sistemli, evidensga asoslangan dasturlar esa juda kam. Shuningdek, maktab psixologlarining yuqori ish yuklamasi va ko'pincha etarli malakaning yo'qligi samarali profilaktik ishlarni to'sqinlik qiladi.

Madaniy kontekst masalasi ham muhim. Ko'pgina nazariyalar va dasturlar G'arbiy, asosan individualistik madaniyatlar kontekstida ishlab chiqilgan. O'zbekiston kabi kollektivistik madaniyatda oila, katta oila, mahalla va din omillari boshqacha rol o'ynaydi. Shuning uchun xorijiy tajribani ko'chirish emas, balki mahalliy sharoitga moslashtirilgan, madaniy jihatdan mos yondashuvlar ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ladi.

Adabiyotlarda gender farqlari masalasi ham ko'tarilgan. O'g'il va qiz bolalarda me'yor buzilishlarining shakllari, sabablari va dinamikasi farq qilishi mumkin. Masalan, o'g'il bolalarda tashqi, agressiv shakldagi buzilishlar ko'proq uchraganda, qiz bolalarda ichki, emotsional muammolar ustunlik qilishi mumkin. Biroq, bu farqlar ham madaniy va ijtimoiy rollar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

XULOSA. O'smirlar xulq-atvoridagi me'yor buzilishlari muammosi bo'yicha olib borilgan adabiyotlar tahlili quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon beradi.

Birinchidan, me'yor buzuvchi xulq-atvor ko'p omilli hodisa bo'lib, uning shakllanishida biologik, psixologik va ijtimoiy omillar murakkab o'zaro ta'sirda bo'ladi. Oilaviy muhit, maktab sharoitlari, shaxsiy-psixologik xususiyatlar va ijtimoiy-madaniy kontekst bir vaqtning o'zida risk va himoya omillari sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, diagnostik yondashuvlar xilma-xilligi va ularning kompleks qo'llanilishi zaruriyati aniq ko'rinmoqda. Standartlashtirilgan testlar, proyektiv metodikalar, kuzatish va intervyu texnikalarining o'zaro to'ldirilishi to'liqroq va aniqroq diagnostik xulosa shakllantirishga imkon beradi. Biroq, diagnostik vositalarning madaniy adaptatsiyasi va validatsiyasi muhim muammo bo'lib qolmoqda.

Uchinchidan, profilaktik va korreksion ishlar samaradorligi ularning evidensga asoslanganligiga, kompleks xarakteriga va madaniy kontekstga mosligiga bog'liq. Birlamchi, ikkilamchi va uchinchi darajali profilaktikaning o'zaro bog'langan tizimi yaratilishi zarur. Shu bilan birga, maktab, oila va jamiyatning hamkorligi muhim shartdir.

To'rtinchidan, O'zbekiston sharoitida ushbu muammo bo'yicha tadqiqot makonini kengaytirish zaruriyati mavjud. Mahalliy empirik tadqiqotlar, adaptatsiya va validatsiya ishlari, milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olgan nazariy modellar ishlab chiqish dolzarb vazifalardir. Shuningdek, maktab psixologlarining malakasini oshirish va evidensga asoslangan dasturlarni joriy etish uchun tizimli yondashuv zarur.

Beshinchidan, o'smirlar xulq-atvoridagi me'yor buzilishlari bilan ishlashda profilaktika va erta intervensiya kurativ (davolash) yondashuvga nisbatan samaraliroq va iqtisodiy jihatdan tejamkorroq ekanligi isbotlangan. Shuning uchun ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarida profilaktik yo'nalishni kuchaytirish strategik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Ushbu adabiyotlar tahlili O'zbekiston psixologiya va pedagogika fanlari uchun o'smirlar me'yor buzuvchi xulq-atvori bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos va amaliy yo'nalishlarni belgilaydi. Mahalliy empirik tadqiqotlar, madaniy moslashtirilgan diagnostik vositalarni yaratish va milliy sharoitga mos profilaktik dasturlarni ishlab chiqish kelajakda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Achenbach, T. M., & Rescorla, L. A. (2001). Manual for the ASEBA School-Age Forms & Profiles. Burlington, VT: University of Vermont, Research Center for Children, Youth, & Families.
2. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

3. Baumrind, D. (1991). The influence of parenting style on adolescent competence and substance use. Journal of Early Adolescence, 11(1), 56-95.
4. Bronfenbrenner, U. (1979). The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Castro, F. G., Barrera, M., & Martinez, C. R. (2004). The cultural adaptation of prevention interventions: Resolving tensions between fidelity and fit. Prevention Science, 5(1), 41-45.
6. Dodge, K. A., Bates, J. E., & Pettit, G. S. (1990). Mechanisms in the cycle of violence. Science, 250(4988), 1678-1683.
7. DuBois, D. L., Portillo, N., Rhodes, J. E., Silverthorn, N., & Valentine, J. C. (2011). How effective are mentoring programs for youth? A systematic assessment of the evidence. Psychological Science in the Public Interest, 12(2), 57-91.
8. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. Child Development, 82(1), 405-432.
9. Henggeler, S. W., Schoenwald, S. K., Borduin, C. M., Rowland, M. D., & Cunningham, P. B. (2009). Multisystemic Therapy for Antisocial Behavior in Children and Adolescents (2nd ed.). New York: Guilford Press.
10. Hunsley, J., & Mash, E. J. (2018). A Guide to Assessments That Work (2nd ed.). New York: Oxford University Press.
11. Moffitt, T. E. (1993). Adolescence-limited and life-course-persistent antisocial behavior: A developmental taxonomy. Psychological Review, 100(4), 674-701.
12. Olweus, D., & Limber, S. P. (2010). Bullying in school: Evaluation and dissemination of the Olweus Bullying Prevention Program. American Journal of Orthopsychiatry, 80(1), 124-134.
13. Клейберг, Ю. А. (2014). Психология девиантного поведения [Psychology of deviant behavior]. Москва: Юрайт.
14. Личко, А. Е. (1983). Психопатии и акцентуации характера у подростков [Psychopathies and character accentuations in adolescents]. Ленинград: Медицина.
15. Эльконин, Д. Б. (2001). Психология развития [Developmental psychology]. Москва: Академия.